



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Choriyeva Zuhra Tolib qizi**

Qashqadaryo viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi  
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası o'qituvchisi  
e-mail: [zukhratalibovna92@gmail.com](mailto:zukhratalibovna92@gmail.com)

## **BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY VA METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

***Annotatsiya.** Maqolada kasbiy va metodik kompetentlik tushunchalariga ta'rif berilgan, shuningdek, kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassisning sifatlari haqida batafsil bayon etilgan. Shu bilan birga bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini ta'minlab beruvchi asosiy talablar ham yoritilgan.*

***Tayanch so'zlar:** kasbiy va metodik kompetentlik, innovatsion yondashuv, psixologik-pedagogik va didaktik imkoniyatlar, kasbiy layoqat, eruditsiya, psixologik-pedagogik tayyorgarlik.*

## **ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО- МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

***Аннотация.** В статье определены понятия профессионально-методической компетентности, а также качества специалиста,*

обладающего профессиональной компетентностью. В нем также изложены основные требования, обеспечивающие необходимый и адекватный уровень подготовки будущих учителей к педагогической деятельности.

**Ключевые слова:** профессионально-методическая компетентность, инновационный подход, психолого-педагогические и дидактические возможности, профессиональная компетентность, эрудиция, психолого-педагогическая подготовка.

## OPPORTUNITIES TO DEVELOP THE PROFESSIONAL AND METHODICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

**Annotation.** The article describes the concepts of professional and methodological competence, as well as the qualities of a specialist with professional competence. It also outlines the basic requirements that ensure the necessary and adequate level of pedagogical preparation of future teachers.

**Keywords:** professional and methodological competence, innovative approach, psychological-pedagogical and didactic opportunities, professional competence, erudition, psychological-pedagogical training.

**Kirish (Introduction).** Jahon ta'lim tizimidagi islohotlar va ta'lim bozorida raqobat muhitini shakllanishi mutaxassislar tayyorlash tizimini kompetentli yondashuv asosida tashkil etish va ta'lim standartlarida belgilangan kompetensiyaviy talablarni uzluksiz takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xalqaro tajribaga ko'ra pedagoglarning kasbiy va metodik kompetentligi, jumladan, ta'lim jarayonini amalga oshirishning eng maqbul metodlarini, samarali modellarini ishlab chiqish, innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish va amalga oshirishning metodik ta'minotini takomillashtirishga alohida ehtiyoj tug'ilmoqda. Mazkur jihat bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va metodik kompetentligini rivojlantirishni taqozo etadi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda ta'lim shakllari va metodlarini modernizatsiyalash, metodik kompetentlikni shakllantirish usullarini, ilmiy asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, pedagoglarning metodik kompetentligini shakllantirishning zamonaviy metodik tizimini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning pedagogik sharoitlarini

belgilash, o'quv materiallarini mazmunan takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Mazkur zaruriyatdan kelib chiqib, innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari joriy etish, kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan fanlarni o'qitish metodikasi va didaktik vositalarini ishlab chiqish talab etiladi. Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilish va ta'limning xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash maqsadida izchil va keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash amaliyotiga joriy qilish uchun ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va metodik kompetentligini rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Oliy ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya jarayonining umumiy tamoyillari va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashning samarali metod va vositalari A.A.Abduqodirov, N.N.Azizxo'jayeva, F.R.Yuzlikayev, V.N.Bespalko, shaxs faoliyatining motivatsion muhitini yaratish hamda takomillashtirishning nazariy masalalari R.Z.Gaynutdinov, P.A.Rudik, M.G.Davletshin, Sh.E.Kurbanov, S.L.Rubinshteyn va N.F.Talizinalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. O'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish muammolari A.I.Vorobyev, B.A.Nazarova, P.T.Magzumov, T.A.Malenko, N.A.Muslimov, U.N.Nishonaliyev, N.Sayidahmedov, O'.Q.Tolipov, A.R.Xodjabayev, J.A.Xamidov, O.X.To'raqulovlar va boshqa pedagog olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy mamlakatlar olimlari G.Spenser, B.Blum, R.Mohan, H.Miyakawa, Y.Xuqin kabi olimlar ta'limda ijodkorlik, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, kompetentlik masalalari, kasbiy-metodik yetuklik muammolari, pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish nazariyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlash muammosi bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da,

innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish psixologik-pedagogik va didaktik imkoniyatlari, metodikasi, ilmiy asoslari to‘liq ochib berilmagan, ularni takomillashtirish muammosi maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa, innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish muammosini tadqiq etish zaruratini taqozo etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ta’lim tizimidagi zamonaviy o‘zgarishlar, o‘qituvchining metodik kompetentligi hamda kasbiy qobiliyatini izchil va muntazam rivojlantirishni taqozo etmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyatning subyekti o‘qituvchi va uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo‘ladi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni angelay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. Pedagogikada kompetentlik deganda o‘qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan

bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganlik hamda innovatsion yondashuv asosida ularni amaliy faoliyatida qo‘llay olish qobiliyati tushuniladi.

Kasbiy bilimlarning mukammal bo‘lishi uchun quyidagilar talab etiladi:

1. Fan metodologiyasi – jamiyatning ta‘lim-tarbiya sohasidagi talab va vazifalarining falsafiy asoslarini bilishi;

2. Nazariy bilimlar – pedagogika-psixologiya fani va o‘z fanining qonun va qonuniyatlarini, qoida va tamoyillarini bilishi;

3. Metodik bilimlar – o‘quv ta‘lim jarayoni tuzilishining modelini amaliy va nazariy jihatdan tuza olishi (ta‘lim jarayonini modellashtira olishi);

4. Ta‘limning texnologik tomoni – konkret sharoitda ta‘lim va tarbiya sohasidagi amaliy vazifalarni samarali hal eta olishi.

Metodik kompetentlik – ta‘lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalarini bilish, o‘zlashtirish, amalda qo‘llash, faoliyat natijalarini kvalimetrik tahlil eta olish, baholash, ilg‘or xalqaro pedagogik tajribalarni o‘rganish, o‘quv jarayonini loyihalash, muvaffaqiyatli amalga oshirish ko‘nikmalaridir. Bo‘lajak o‘qituvchilarda metodik kompetentlikni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga alohida e‘tibor qaratildi. O‘qituvchi faoliyatida o‘z-o‘zini faollashtirish, o‘z ijodkorligi, o‘z-o‘zini bilishi va yaratuvchiligi kabi motivlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tarkib toptirishdir. Ta‘lim jarayoniga yondashuv asosan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini shakllantirishga qaratiladi. Ta‘lim metodlari avvalo pedagog ongida qaysidir bir yo‘nalishdagi faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida namoyon bo‘ladi [3].

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma‘lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

M.G.Davletshin o‘z izlanishlarida o‘qituvchi qiyofasida aks etishi zarur bo‘lgan shaxsiy va kasbiy sifatlarni yaxlit majmua tarzida quyidagicha ifodalaydi:

1. O‘qituvchining shaxsiy xislatlari (bolalarni yaxshi ko‘rish, ularni sevish; amaliy-psixologik aql-farosatlilik; mehnatsevarlik; jamoat ishlarida faollik; mehribonlik; kamtarlik; odamiylik, dilkashlik; uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo‘lish; o‘z bilimini oshirishga intilish).

2. Kasbiga xos bilimlarga egalik (ta‘lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi; psixologiya asoslarini, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi; etnopsixologik bilimlarni egallashi; hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini va uning metodologiyasini bilishi; maktab yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi; o‘z fanini o‘qitish metodikasini bilishi; o‘quvchilarga tarbiyaviy ta‘sir etishning samaradorligini bilishi; ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi).

3. O‘z kasbiga xos xislatlarga egalik (milliy qayta qurish mafkurasi bilan mustaqil davlat mafkurasini tushunishi; zamonaviy maktabda olib boriladigan o‘quv-tarbiya jarayonida umuminsoniy boyliklar, milliy an‘analar va urf-odatlarining ahamiyatini tushunishi; o‘qituvchining kuzatuvchanligi; o‘z diqqat-e‘tiborini taqsimlay olishi; pedagogik fantaziya (xayol)ning rivojlanishi; o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lishi; o‘zini qo‘lga ola bilishi, o‘zini tuta olishi; pedagogik takt; nutqning emotsional ifodalanishi).

4. Shaxsiy-pedagogik uddaburonligi (dars mashg‘ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi; o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi; ta‘lim

va tarbiya jarayonida o'quvchilar ongining taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi; pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi; bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o'z faoliyatini rejalashtirishni bilishi; o'quv maqsadlarini rejalashtira olishi; o'zini ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi).

5. Tashkilotchilik malakalariga egalik (bolalar jamoasini uyushtira bilishi; turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi; bolalarni biror narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi; amaliy masalalarni hal etishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo'llay olishi).

6. Kommunikativlik malakalariga egaligi (bolalarni o'ziga jalb etishni bilishi; bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatni tartibga solishni bilishi; bolalarning jamoalararo va jamoa ichidagi o'zaro munosabatlarini tartibga solishni bilishi; bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilishi).

7. Gnostik malakalarga egaligi (bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi; o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi; boshqa o'qituvchilarning tajribalarini o'rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to'g'ri xulosa chiqara olishi; psixologik va pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi; o'quvchilarni to'g'ri tushunib, ularning xulq-atvori sabablarini tushuntirishni bilishi).

8. Ijodiy xislatlarga egalik (pedagogik mahoratni takomillash-tirishga intilishi; o'quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati; o'zini o'quvchi o'rniga qo'yib, bo'lib o'tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi; avvalgi voqyea-hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyati; o'zining o'quvchiga pedagogik ta'sir natijalarini oldindan ko'ra bilishi).

O'rta maktab o'qituvchisining pedagogik faoliyatini tavsiflashda ko'pchilik olimlar N.V. Kuzmina va Z.F. Yesarova tadqiqotlariga tayanadilar. Ular tarbiyachi-pedagogning kasbiy tayyorgarligida quyidagi komponentlarni farqlaydilar:

1. Bilimdonlik (gnostik qobiliyatga egalik).
2. Konstruktivlik (loyihalay olish qobiliyatiga egalik).
3. Kommunikativlik.
4. Tashkilotchilik.

Bilimdonlik (yunoncha “gnosis” – “bilish”) pedagogning bilim sohasiga taalluqli bo'lib, uning o'z fanini chuqur bilishi, muloqotchanligi, tarbiyachi-pedagogning psixologik xususiyatlari, o'zini anglashga doir bilimlarini o'zida mujassam etadi.

Konstruktivlik (loyihalay olish qobiliyatiga egalik) – bu pedagogning shaxsiy faoliyati va tarbiya maqsadlarini hisobga olgan holdagi faolliklarini alohida loyihalashtirishni ko'zda tutadi.

Kommunikativlik – bu tarbiyachi-pedagogning alohida xususiyati bo'lib, unda o'quvchilar va hamkasblari bilan o'zaro hamkorlik muloqoti nazarda tutiladi. Bunda pedagogik faoliyatning samaradorligi uning muloqotchan-ligiga bog'liq bo'ladi. Muloqot didaktik asosga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shu bilan birga bu komponent tarbiyachining bolalar bilan muloqotda bo'lishiga, o'quvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga, pedagogik shaklning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatidir.

Tashkilotchilik – tarbiyachi-pedagogning o'z shaxsiy faoliyati, shuning-dek, o'quvchilar faoliyatini metodik jihatdan to'g'ri tashkil eta olish malakalariga egaligi bo'lib, ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishning muhim shartlaridan biri sanaladi. O'qituvchining tashkilotchilik qobiliyatiga egaligi, birinchidan,



o‘quvchilar jamoasini uyushtira bilish, unda jamoani jipslashtira olish, ikkinchidan, o‘zini shaxsiy ishini to‘g‘ri tashkil qila olishda namoyon bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, tarbiyachi-pedagog kasbiy qiyofasida aks etishi lozim bo‘lgan mazkur sifatlar ularning nafaqat o‘quvchilar bilan o‘zaro aloqaga kirishishlarida aks etib qolmay, shu bilan birga atrofdagilar bilan munosabatlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘rinib turibdiki, mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik mahorati unda nafaqat kasbiy bilimlarni kerakli darajasini, balki, psixologik tayyorgarlikni, o‘zini-o‘zi va o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarish, o‘zini kerakli faoliyatga yo‘naltirish, kasbiy, ma’naviy, jismoniy va shaxsiy imkoniyatlarini kerakli sharoitda qo‘yilgan masalani hal etishga to‘g‘ri yo‘naltira bilish kabi kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Chunki, aynan shu ko‘nikmalar kasbiy tayyorgarlikning shakllanishidagi zaruriy fenomenlar sifatida baholanadi. Yuqorida qayd etilganlardan ko‘rinib turibdiki, pedagogika oliygohlarida mutaxassislar kasbiy tayyorgarligi, pedagogik mahoratini shakllantirish dolzarb ijtimoiy ahamiyatli muammo hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, pedagogning mutaxassis sifatida aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish, pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish, izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish, ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish, faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish, kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi. Pedagoglarning o‘z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo‘l keladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).**

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish ham murakkab pedagogik tizimdir. Davlat ta'lim standartlari zamonaviy pedagogga qo'yiladigan malaka talablari kompleksini belgilab beradi.

Quyidagilar bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini ta'minlab beruvchi asosiy talablar hisoblanadi:

- o'qituvchining ta'lim oluvchilarni o'qitish va tarbiyalash mahorati;
- o'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar;
- ta'lim oluvchilarning bilimni nazorat qilish va xolisona baholash mahorati.

O'qitish mahorati quyidagi talablar bilan belgilanadi:

- kasbiy layoqat va eruditsiya;
- psixologik-pedagogik tayyorgarlik;
- ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga va yangi bilimlar olishga o'rgatish mahorati;
- o'quv adabiyotlari shakllari va turlarini bilish;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini egallaganlik, internetning global tarmog'i bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalar;
- pedagog kadrlar malakasini oshirishning asosiy shakllarini bilish;
- ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini bilish;
- pedagogika fani va sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini bilish;
- predmetlararo aloqalardan foydalanish mahorati;
- ritorika va notiqlik san'ati asoslarini bilish.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va metodik kompetentligi davlat ta'lim standartlari va ijtimoiy buyurtmachi talablari asosida rivojlantiriladi va uning natijasi baholanadi. Bo'lajak o'qituvchi nazariy, amaliy va mustaqil ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar faoliyat tajribasini o'zlashtirishi natijasida metodik kompetentligini rivojlantiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishning faoliyatli modelida ikkita ko'rsatkich bo'yicha, ya'ni metodologik hamda pedagogik, umumkasbiy fanlar va mustaqil ta'lim orqali tavsiflanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligi pedagogik jarayonda vazifalar (ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi), mazmun (me'yoriy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va qo'shimcha materiallar), shakl (jamoaviy, guruhli hamda yakka), metod (an'anaviy, noan'anaviy va inovatsion texnologiyalar) va vosita (real, tabiiy va bosma)lar orqali rivojlanib boradi.

Metodik kompetentlik o'z o'rnida ta'lim berish, tarbiyalay olish, ta'limning zamonaviy usullarini qo'llash, inson omilini ta'minlash fazilati, ta'lim oluvchilar bilimini holisona baholash va nazorat qila olish kompetentliklari orqali ifodalanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion yondashuv asosida metodik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini joriy etish natijasida shakllantirilgan kompetensiyalarni qiyosiy o'rganish, tahlil qilish va kelgusi faoliyatni belgilash jarayonida baholash mezonlari va natijalari monitoringi sifatida ifodalandi. Faoliyatli modelni joriy etish natijasida metodik kompetentligi rivojlangan, ta'lim jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil eta oladigan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish nazarda tutiladi.

Xulosa shuki, ta'limni bunday shaklda tashkil etish har bir bo'lajak o'qituvchilarga imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirishni taqozo etdi. Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari, pedagog-talaba, talaba-talaba, talaba-talabalar guruhi, talaba-talabalar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, kasb ta'limi o'qituvchisi sifatida kamol toptirishlari uchun qulay pedagogik shart-sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T., 2017. –B.39.



2. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi // Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2013.

3. Mannonov J.A. Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari: ped.f.f.doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T.: 2020. – 52 b.

4. Shodiyeva M.J. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari malakasini oshirish tizimining o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori diss. (PhD). –T.:, 2019. – 180 b.